

TOJIKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATIGA OID AYRIM FIKR VA MULOHAZALAR

Babadjanov Suxrob Axmedovich

Yurist

Annotatsiya: *Ushbu maqolada prokuratura tushunchasi, prokuratura tizimi va tuzilishi, prokurorning jinoyat ishlarini tugatish yuzasidan ayrim fikr mulohazalar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *Tojikiston, davlat, xalq, xokimiyat, prokuratura, konstitutsiya, qonun, nazorat.*

Hokimiyatni bo'linish prinsipida prokuratura organlarining o'рни alohida ahamiyatga ega. Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasida prokuratoraning konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan tartibga soluvchi normalar mustahkamlangan. Tojikistonning 1998 -yil 22-mayda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida" gi qonunga muvofiq ish faoliyati olib boradi. Qonunning 1-moddasida "Tojikiston Respublikasi prokuraturasi-bu o'z vakolatlari doirasida Tojikiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan vakolatli nazoratni yaratadigan yagona markazlashtirilgan organlar tizimi. Tojikiston Respublikasi prokuraturasi Tojikiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida nazarda tutilgan quyidagi funksiyalarni bajaradi"⁶⁹ deb mustaxkamlab quyilgan. Har qanday davlat, agar u o'z tashqi siyosatini amalga oshirishda suveren va mustaqil bo'lishga, ichki masalalarni hal etishda barqarorlikka intilayotgan bo'lsa, o'ziga xos funksiyani o'z mexanizmlari orqali o'zi qabul qilgan qonunlarning to'liq, bir xilda va so'zsiz bajarilishini ta'minlaydi. Yaqin tarix shuni ko'rsatadiki, Tojikiston Respublikasida qonunlarni aniq bajarilishini prokuror amalga oshiradi. Prokuratura nazorati, nazoratning eng oliy shakli bo'lib, qonun ustuvorligiga rioya etilishini nazorat qiluvchi mustaqil organ hisoblanadi. Tojikiston Konstitutsiyasiga asosan prokuratura organlar jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonunlarga rioya etilishi va ijro etilishi ustidan nazorat, shuningdek dastlabki tergovni amalga oshirish bo'yicha keng vakolatlarga ega. Shuningdek Tojikiston Respublikasi konstitutsiyasida⁷⁰ Bosh prokuratura va unga bo'ysunuvchi prokuratura tuzilmalarining eng maqbul modeli belgilab berilgan. So'ngi yillarda Tojikiston Respublikasida amalga oshirilgan sud-huquq tizimidagi islohatlar natijasida prokuratura organlari faoliyatiga ham o'zgartirishlar kiritildi⁷¹. Prokuratura to'g'risidagi qonunning 3-moddasida⁷² prokuratura organlarining faoliyati tartibga solingan. Unga ko'ra prokuratoraning asosiy faoliyati Tojikiston Respublikasining

⁶⁹ http://www.portali-huquqi.tj/publicadliya/view_qonunhoview.php.

⁷⁰ <https://mfa.tj/ru/main/view/72/konstitutsiya-respubliki-tadzhikistan>

⁷¹ <https://prokuratura.tj/ru/structure-rus.html>

⁷² http://www.portali-huquqi.tj/publicadliya/view_qonunhoview.php?showdetail=&asosi_id=299

vazirliklari, davlat qo'mitalari va boshqa idoralari, mahalliy vakillik va ijroiya organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, harbiy boshqaruv organlari, nazorat organlari, korxonalar, muassasalar, jamoat va diniy tashkilotlar, ijtimoiy-siyosiy partiyalar va boshqa birlashmalar tomonidan qonunlarning bajarilishini nazorat qilish, ulardan qat'i nazar mulkchilikning bo'ysunishi, mansubligi va shakllari, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek ular tomonidan chiqarilgan qonun hujjatlariga, huquqiy hujjatlarga muvofiqligi uchun;

- ushbu moddaning birinchi xatboshida ko'rsatilgan barcha tuzilmalar va mansabdor shaxslar tomonidan inson va fuqarolik huquqlari va yerkinliklariga rioya yetilishini nazorat qilish;

- jinoyatchilikka va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashuvchi organlar, shuningdek tezkor-tergov faoliyatini, surishtiruv va dastlabki tergovlarni amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonunlarning bajarilishini nazorat qilish;

-qamoqda saqlash joylarida, tergov hibsonasida, sud tomonidan tayinlangan jazo va boshqa majburlash choralarini ijro yetishda qonunlarning bajarilishini nazorat qilish;

- jinoyatlarni tergov qilish;

- boshqa davlat organlari bilan birgalikda jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ishlab chiqish, qonunlarni takomillashtirish va aniqlashtirish ishlarida ishtirok yetish, qonun ijodkorligi faoliyati;

- huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirish. Prokurorlar Tojikiston Respublikasining protsessual qonunchiligiga muvofiq sudlar tomonidan ishlarni ko'rib chiqishda, qonunga zid bo'lgan norozilik qarorlari, hukmlar, qarorlar va sud qarorlarini ko'rib chiqishda qatnashadilar. Bundan tashqari, Tojikiston Respublikasi Bosh prokuraturasi maxsus qonun osti xujjatlarni chiqardi. Unga ko'ra, prokuratura tizimi markazlashtirildi. Jumladan Bosh prokuratura tashkil etildi, shu bilan birga yangi boshqarma va bo'limlar tashkil etildi. Prokurorning jinoyat protsessidagi vakolatlariga va huquqni muhofaza qilish sohasidagi faoliyati hisoblangan fuqarolarning huquqlariga rioya etilishini nazorat qilish vazifasini amalga oshirish bilan bog'liq ayrim vakolatlari o'zgartirildi. Shu bilan birga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida prokuraturaning huquqni muhofaza qiluvchi roli sezilarli darajada oshirildi. Tojigiston Respublikasi davlat boshqaruv tizimida prokuratura faoliyatini mustaqil amalga oshiradi, faqat davlat raxbari va parlamentga bo'ysunadi. Tojikiston Respublikasi prokuraturasiga bosh prokuror raxbarlik qiladi. Bosh prokuror maxalliy prokurorlarga ijro etish yuzasidan buyruq va ko'rsatmalar berish vakolatiga ega.⁷³ Bosh prokuror tomonidan berilgan buyruq va ko'rsatmalarni barcha maxalliy prokurorlarga majburiy hisoblanadi. Tojikiston Respublikasida

⁷³ <https://cyberleninka.ru/article/n/prokurorskiy-nadzor-za-ispolneniem-zakonov-kak-vid-gosudarstvennoy-deyatelnosti-prokuratury-rossiyskoy-federatsii-i-respubliki/viewer0522>

prokuror jinoyat ishlarini tergov qilish bilan birga jinoyatlarni bir tergov organidan boshqa tergov organiga o'tkazish vakolatiga ega. Etiborli tomoni shundaki, har qanday korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar prokuratura tergovchilari tomonidan tergov qilinadi.

Prokurorning sudgacha bo'lgan ish yuritishda amalga oshiriladigan vakolatlari jinoyat ishlari bo'yicha tergovga qadar bo'lgan ish yuritishni sub'ektlari, sudgacha bo'lgan ish yuritishni qonun hujjatlariga muvofiq, qonun hujjatlarida belgilangan jinoyat-protsessual harakatlarni amalga oshiradi. "Prokuror nazoratining samaradorligi shaxsni asossiz jinoiy javobgarlikka tortish, asossiz jinoyat ishini tugatilishiga, shaxslarni qonunga xilof ravishda jinoiy javobgarlikka tortish, qonunga xilof ravishda jinoyat ishi qo'zg'atish faktlariga nisbatan qonuniy choralar ko'radi. Shu bilan birga prokuror jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan vakolatlarini ham aniq va to'liq bajaradi. Jumladan: Birinchidan, u qonunda nazarda tutilgan barcha asoslar bo'yicha har qanday jinoyat ishini mustaqil ravishda tugatishi yoki jinoyat sodir etgan shaxsni Kodeksda belgilangan qoidalarga muvofiq jinoiy javobgarlikdan ozod qilishi mumkin, albatta, advokat sifatidagi tajribasi va davlat xodimining donoligidan foydalangan holda. Ikkinchidan, prokuror jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarorni surishtiruvchi va tergovchi bilan kelishib olishga haqli, shundan so'ng qaror qonuniy kuchga kiradi. Uchinchidan, prokuror quyi turuvchi prokuror, tergovchi va tergov organi tomonidan jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qonunga xilof, asossiz yoki muddatidan oldin qabul qilingan qarorlarni bekor qilishga haqli.

Agar prokuror jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarorni tekshirish chog'ida qonunning noto'g'ri qo'llanilganligini, natijada protsessual harakat shaklining buzilishiga olib kelganligini aniqlasa, jinoyat-protsessual qonunchiligining jiddiy buzilishi deb tan olinmasligi kerak va shuning uchun jinoyatni tugatish to'g'risidagi qarorni bekor qilish uchun asoslar aniqlanganda xatoni bartaraf etish yuzasidan ko'rsatma beradi. Ish yuritishni tugatish to'g'risidagi qarorning asoslilikini tekshirishning asosiy usuli prokuror tomonidan ish materiallarini bevosita o'rganishdan iborat bo'lib, aniqlangan kamchiliklar qonun buzilishi bilan bog'liq bo'lmasa, ularni bartaraf etish jinoyat ishi yuzasidan qonuniy qaror qabul qilish uchun asosli bo'lsa prokuror ushbu kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'radi. Jinoyat ishini tergov qiladigan tergovchining ish materiallari prokuror tomonidan shaxsan tekshirish orqali ulardagi mavjud kamchiliklarni tuzatish va to'ldirish choralari ko'rishi qonun normalarida mustaxkamlangan.

Prokuror tergovchining jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi noqonuniy qarorini bekor qilib, u ushbu huquqiy hujjatning amal qilishini tugatadi natijada ushbu qaror o'z kuchini yuqotadi. Prokurorlar tergovchi tomonidan jinoyat ishini tugatish yuzasidan qabul qilingan qarordagi qonun buzilishlarining mavjudligini tekshiradi va asosli bekor qiladi. Jinoyat ishini tergov qilish yuzasidan jinoyat protsessi ishtirokchilaridan kelib tushgan har bir shikoyat prokuror tomonidan o'rganib chiqilib

qonuniy qarorlar qabul qilinadi. Maqsad jinoyat ishlarni tergov qilish jarayonida ishni tugutish yuzasidan qabul qilingan qarorlarni qonuniyligini ta'minlashga qaratilgan.

Bundan tashqari, Tojikiston Respublikasi prokuraturasi organlarining inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi nazoratining ustuvor yo'nalishlarini alohida ta'kidlash muhim. Birgina yer masalasida keyingi o'n yilda yerdan foydalanish qonunchiligini buzganlik uchun 2515 ta⁷⁴ jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borildi. Berilgan yerlarning adolatli taqsimlanishini nazorat qilish prokuratura organlarining bevosita vazifasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, prokuratura organlarining bu boradagi faoliyati muhimligini ta'kidlamoqchiman, chunki inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilishning to'liq amalga oshirilishini ta'minlash davlat hokimiyati samaradorligining muhim mezonini hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. http://www.portali-huquqi.tj/publicadliya/view_qonunhoview.php.
2. <https://mfa.tj/ru/main/view/72/konstitutsiya-respubliki-tadzhikistan>
3. <https://prokuratura.tj/ru/structure-rus.html>
4. http://www.portali-huquqi.tj/publicadliya/view_qonunhoview.php?showdetail=&asosi_id=299
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/prokurorskiy-nadzor-za-ispolneniem-zakonov-kak-vid-gosudarstvennoy-deyatelnosti-prokuratury-rossiyskoy-federatsii-i-respubliki/viewer0522>

⁷⁴ <https://cyberleninka.ru/article/n/prokurorskiy-nadzor-za-ispolneniem-zakonov-kak-vid-gosudarstvennoy-deyatelnosti-prokuratury-rossiyskoy-federatsii-i-respubliki/viewer>